

## DAVLATNING EKOLOGIK FUNKSIYASI

Ahmadaliyev Shohruh Tox‘tasin o‘g‘li

“sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

Muhammedov Muhammadamin Murodiljon o‘g‘li

“sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

### Annotatsiya:

ushbu maqolada muallif tomonidan funktsiya tushunchasi, davlat funktsiyalaridan biri bo‘lgan davlatning ekologik funktsiyasining mazmun-mohiyati, soha mutaxassislari tomonidan bildirilgan ilmiy fikrlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ushbu sohadagi normalar xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlatning funktsiyasi, davlatning vazifasi, ekologik funktsiya, tabiiy resurslar, fan va texnika taraqqiyoti, ekologik barqarorlik, atrof-muhitni yaxshilash.

### Аннотация:

в данной статье рассматривается понятие функции автором, сущность экологической функции государства как одной из государственных функций, научные взгляды, выраженные специалистами отрасли, нормы в данной области, установленные Конституцией Республики Узбекистан.

**Ключевые понятия:** функция государства, задачи государства, экологическая функция, природные ресурсы, прогресс науки и техники, экологическая устойчивость, улучшение окружающей среды.

### Abstract:

this article talks about the concept of function by the author, the content and essence of the ecological function of one of the state's functions, scientific opinions expressed by experts in the field, norms in this area established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan.



**Key concepts:** the function of the state, the tasks of the state, environmental function, natural resources, progress of science and technology, environmental sustainability, environmental improvement.

Bizga ma'lumki davlat funksiyasi tushunchasi davlat va huquq nazariyasi fanida o'ziga xos kategoriyalardan biri bo'lib, davlat funksiyalari bilan bog'liq masalalarini o'rganishda o'zining ma'mun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni va roli, ijtimoiy vazifasini yanada to'liqroq tushunib olishga xizmat qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi sohasida faoliyat yuritigan olimlarimiz aynan davlat funktsiyasi xususida bir qator ilmiy qarashlarini aytib o'tishgan. Funktsiya bu vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki "funksiya" lotin tilidan olingan bo'lib, "faoliyat" degan ma'noni anglatadi. Davlat funksiyalarida uning mohiyati va ijtimoiy yo'naltirilganligi, maqsad va vazifalari aks etadi. Shuni aytish kerakki, funktsiya davlat tashkilotining ichida tadbiiq qilinishi mumkin emas, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etgan holda tadbiiq qilinadi.

Davlat funksiyalarining asosiy belgilari, ularning davlat mohiyati va ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog'liqligi, ma'lum tarixiy bosqichlarda turlicha bo'ladigan, davlatning oyoqqa turish, mustahkamlanish va rivojlanish jarayonida o'zgarib boradigan vazifalarni davlat maqsadlarida hal qilishga yo'naltirilganidan iborat bo'lishi umumiy qabul qilingandir.<sup>1</sup>

Ma'lumki, davlatning ichki va tashqi funksiyalari mavjud bo'lib, biz so'z yuritmoqchi bo'lgan ekologik funktsiya davlatning ichki funksiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning ekologik funksiyasi – uning jamiyat talab va ehtiyojlarini yana-da to'liqroq ta'minlash va jamiyat a'zolarining yashash, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarini hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va ko'paytirish borasidagi faoliyatidir.<sup>2</sup> davlatning mazkur funksiyasi o'zaro aloqadorlikda quyidagi yo'nalishda amalga oshirilishi e'tirof etish mumkin, ya'ni birinchi, atrof tabiiy muhit obyektlarini saqlash; ikkinchi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; va nihoyat uchinchi, tabiiy resurslarni tiklash. Tabiiyki, davlatning ekologik funksiyasi jamiyatning iqtisodiy hamda ekologik manfaatlarini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, tabiiy resurslarni tiklash, ko'paytirish, fuqarolar hamda kelajak avlod uchun qulay tabiiy atrof muhitni yaratishga qaratilgan.

Taniqli olim prof. Z. Islomov davlatning ekologik funksiyasi haqida xususida quyidagilar fikrlarni bildirgan: "Yaqin o'tmishda aholi ehtiyojlarining o'sib borishi

<sup>1</sup> Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari: O'quv qo'llanma –T.:TDYUI, 2004. 5-b.

<sup>2</sup> Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2019. – 49 b.



bilan jamiyat tabiiy boyliklardan tobora ko‘proq foydalana borishi kerak degan fikr hamma yerda hukmronlik qilgani ko‘pchilikning yodida bo‘lsa kerak. Bunda atrof tabiiy muhitning buzilishi, ekologiya makonining o‘zgarib ketishi, odamlar istiqomat qiladigan joylar hayot uchun xavfli falokat mintaqalariga aylanib ketishi hech kimni tashvishga solmasdi. Shu tariqa ming yilliklar mobaynida tabiat, inson va ishlab chiqarish o‘rtasida tarkib topgan muvozanat barham toptirilgandi.<sup>3</sup>

Ba’zi rus olimlarining davlatning ekologik funksiyasi deganda, “tabiatni va atrof muhitni himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof tabiiy muhitning sifatini yaxshilash va sog‘lomlashtirishga qaratilgan davlat boshqaruvini o‘rnatish va muvofiqlashtirish vazifasini tushunish lozim”<sup>4</sup>ligini e’tirof etadigan fikrlarining to‘g‘riligiga urg‘u berish ham o‘rinlidir.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish barobarida bugungi kunda ekologik funksiyaning davlatning asosiy funksiyalari tarkibiga kiritilishiga fan va texnika taraqqiyotining keskin rivojlanganligi va uning insonga bo‘lgan ta’siri sabab bo‘lganligi, o‘z navbatida, fan va texnika taraqqiyoti insoniyatga beqiyos boyliklarni taqdim etishi bilan birga, murakkab va yechilishi qiyin bo‘lgan muammolarni ham ko‘ndalang qilib qo‘yayotganligini bugungi kunda insoniyat tirik shohidi bo‘lib turibdi. Shu bois ham aksariyat holatlarda tabiatga qoplab bo‘lmas zarar yetkazilmoqda.

Yevropalik olimlari fan va texnika taraqqiyotining bir qator yutuqlariga erishish jarayonida tabiat ekotizimlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatilayotganligi, havo va suv havzalari bulg‘alayotganligi, radiatsiya miqdorining oshib borayotganligi, flora va faunaga, inson hayoti hamda sog‘lig‘iga mislsiz darajada zarar yetkazilayotganligi ta’kidlaydilar. Bunday vaziyatda tabiat hamda atrof muhitni muhofaza qilish nafaqat ma’lum bir davlat uchun, balki dunyodagi barcha davlatlar uchun ham birdek dolzarb vazifa sifatida ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi, aniqrog‘i, boshlang‘ich kapital to‘plash iqtisodni nafaqat siyosatdan, balki atrof muhitning ekologik xavfsizligidan ham yuqori o‘ringa qo‘yadi.

Shu sababli ham bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan muvofiq sharoitda olib borish davlatning ekologiya sohasidagi boshqaruv vakolatining kengaytirilishi va ma’muriy-huquqiy yo‘l bilan amalga oshirilishini talab qiladi.

<sup>3</sup> Islomov Z. M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalar (Davlat nazariyasi). – T., 2000. – B. 224–226.

<sup>4</sup> Теория государства и права / Под. ред. Н. И. Матузова, А. В. Малько. – М., 1997. – С. 68.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida davlatning ekologik funksiyalarini ifoda etadigan konstitutsion normalar belgilangan. Unga ko‘ra, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. ...Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.<sup>5</sup>

Demak, ekologik xavfsizlikni huquqiy jihatdan boshqarish, bizningcha, ma‘lum bir ekologik qonuniyatlarga tayangan huquqiy institutlar yig‘indisini, ya‘ni huquqiy boshqaruv tizimini shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.<sup>6</sup>

Mazkur tizim tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar shaklini aniqlash, davlat va jamiyatning ekologik konsepsiyasini muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan foydalanish prinsiplari ko‘zda tutilgan huquqiy normalar, tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhit ifloslanishining oldini olishga qaratilgan normativ hujjatlarlarni o‘z ichiga olmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda mamlakat ekologik munosabatlarning iqtisodiy shaklidan iqtisodiy-ekologik shakliga o‘tib olishga muvaffaq bo‘ldi deyish mumkin. Bugungi kunda ekologiya borasidagi qonunlar hamma differensial va integral obyektlar bo‘yicha qabul qilinadi, davlatning boshqaruv organlari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish tizimlarida ekologik bo‘linmalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bularning hammasi faqatgina mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan ekologik munosabatlar borasidagi muvaffaqiyatlardir. Biroq ayrim qo‘shni davlatlarda iqtisodiy iste‘molchilik ruhi ustunlik qilmoqda va shu tufayli ham O‘zbekistonning ekologik siyosati milliy ekologik xavfsizlikdan regional yoki global xavfsizlikka tomon yo‘naltirilgan bo‘lishi, yaqin kelajakda Orolbo‘yi, yirik sanoat hududlari va agrar sohalarda ishlab chiqarishning ekologik-iqtisodiy shaklidan ekologik shakliga o‘tishini, ya‘ni ma‘lum bir hududlarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik tizimlarni qayta tiklash va ekologik konsepsiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

<sup>6</sup> Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari: O‘quv qo‘llanma –T.:TDYUI, 2004. 25-b.



So‘zimiz intihosida aytishimiz lozimki, davlat o‘zining tabiatni muhofaza qilish siyosatini shakllantiradi va ekologik funksiyasini amalga oshirishning mazmuni, shakli va usullarini belgilaydi. Demak biz mamlakat iqtisodiy ravnaqi, fuqarolarning farovon hayot kechirishi uchun tabiat boyliklaridan foydalanar ekanmiz, albatta, ulardan samarali, unumli foydalanishimiz, asrab-avaylashimiz, uning o‘rnini qayta tiklash hamda kelajak avlod uchun ham asrashimiz lozim bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari: O‘quv qo‘llanma –T.:TDYUI, 2004.
3. Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019.
4. Islomov Z. M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalar (Davlat nazariyasi).– T.: 2000.
5. Теория государства и права / Под. ред. Н. И. Матузова, А. В. Малько. – М., 1997.

